DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-06-09 Pages: 77-84

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

METAPHORICAL MODELING OF THE CONCEPT OF BEAUTY BASED ON PHYTONYMS

Nursulıw Abatbaeva
Teacher at the General Secondary School No. 22
with Advanced Studies of Individual Subjects of Nukus
Nukus, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: phytonym, concept of beauty, metaphor, metaphorical modeling, Karakalpak folklore, folk epic, linguopoetics, linguoculturology.

Received: 03.10.26
Accepted: 04.10.26
Published: 05.10.26

Abstract: This article analyzes the metaphorical modeling of the concept of beauty through phytonyms in Karakalpak folk epics. It examines the semantic, linguopoetic, and linguocultural features of phytonyms and their functions in creating artistic images, representing human and natural beauty, and reflecting national aesthetic values.

FITONIMLAR ASOSIDA GO‘ZALLIK KONSEPTINING METAFORIK MODELLASHTIRILISHI

Nursulıw Abatbaeva
Nukus shahridagi 22-sonli ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Nukus, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fitonim, go‘zallik konsepti, metafora, metaforik modellashtirish, qoraqalpoq folklori, xalq dostoni, lingvopoetika, lingvokulturologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq dostonlarida fitonimlar asosida go‘zallik konseptining metaforik modellashtirilishi tahlil qilinadi. Fitonimlarning semantik, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari, ularning inson va tabiat go‘zalligini ifodalash, obraz yaratish hamda milliy-estetik qadriyatlarni aks ettirishdagi funksiyalari misollar asosida yoritiladi.

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ КОНЦЕПТА КРАСОТЫ НА ОСНОВЕ ФИТОНИМОВ

Нурсулыу Абатбаева
Учитель общеобразовательной школы №22

с классами с углубленным изучением отдельных предметов города Нукуса
Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фитоним, концепт красоты, метафора, метафорическое моделирование, каракалпакский фольклор, народный дастан, лингвопоэтика, лингвокультурология.

Аннотация: В статье анализируется метафорическое моделирование концепта красоты на основе фитонимов в каракалпакских народных дастанах. Рассматриваются семантические, лингвопоэтические и лингвокультурологические особенности фитонимов, их функции в создании художественных образов, выражении красоты человека и природы, а также отражении национально-эстетических ценностей.

Kirish. Qoraqalpoq folklori xalqning ko‘p asrlik estetik, ma’naviy va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan boy manbadir. Bu folklor namunalarida inson go‘zalligi turli obrazlar, timsollar va badiiy vositalar orqali aks ettiriladi. Shunday vositalardan biri fitonimlar, ya’ni o‘simlik nomlari hisoblanadi.

Metaforik modellashtirish – bu bir konseptni boshqa konsept asosida obrazli ko‘chirish orqali tushuntirish va ifodalash tizimidir. Kognitiv tilshunoslikda metafora nafaqat badiiy vosita, balki fikrlash va konseptuallashtirish mexanizmi sifatida qaraladi. Fitonimlar orqali go‘zallik konsepsiyasining ifodalanishi metaforik modelga asoslanib, o‘simlik obrazlari yordamida insonning estetik xususiyatlari tasvirlanadi.

Ushbu maqolamizda qoraqalpoq folklorida fitonimlar yordamida go‘zallikning aks etish xususiyatlari lingvokulturologik, semantik va stilistik jihatdan tahlil qilinadi. Fitonimlar til birliklari sifatida o‘simlik dunyosiga oid atamalarni bildiradi. Ammo folklor matnlarida ular oddiy nominativ vazifadan chetga chiqib, ramziy va majoziy ma’no kasb etadi. Har bir o‘simlik obrazi xalq ongida muayyan estetik va emotsional assotsiatsiyalarni uyg‘otadi.

Xalq og‘zaki ijodi, xususan, dostonlar tili badiiy-estetik tafakkurning eng muhim ifoda vositalaridan biri sifatida milliy dunyoqarash, qadriyatlar va tushunchalar tizimini o‘zida mujassam etadi. Bu tizimda go‘zallik konsepsiyasi alohida o‘rin egallab, u nafaqat tashqi ko‘rinish, balki ma’naviy barkamollik va tabiiylik bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Xalq dostonlarida go‘zallik ko‘pincha o‘simlik nomlari – fitonimlar orqali obrazli va ramziy tarzda aks ettiriladi.

Fitonimlar xalq fikrida muayyan semantik va estetik yukni o‘zida saqlaydi. Har bir o‘simlik nomi xalq ongida shakllangan urf-odat, an’ana va qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. Masalan, gul, rayhon, lola, terak, chinor kabi fitonimlar nafaqat tabiiy obyekt sifatida, balki go‘zallik, nafosat,

poklik, chidamlilik yoki sadoqat kabi tushunchalarning ramziy ifodasi sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun, doston matnlarida fitonimlar orqali yaratilgan tasvirlar estetik tuyg‘uni boyitiladi va qahramonlarning tashqi va ichki fazilatlarini yanada yaqqol ochib beriladi.

Xalq dostonlarida go‘zallik konseptining fitonimlar orqali aks etishi lingvopoetik hodisa sifatida qaralib, u til birliklarining semantik kengayishi, metaforik va metonimik ko‘chishlar asosida yuzaga chiqadi. Bunda o‘simliklarga xos belgilar – rang, hid, ko‘rinish, noziklik yoki chidamlilik kabi xususiyatlar inson obraziga ko‘chiriladi. Natijada, go‘zallik tasviri aniq va jonli ko‘rinishga ega bo‘lib, tinglovchi yoki o‘quvchining ko‘z o‘ngida yorqin tabiat manzaralarini yoki go‘zal qiz qiyofasini gavdalantiradi.

Shuningdek, fitonimlar orqali aks etgan go‘zallik konsepti milliy-madaniy xususiyatlarni ham namoyon etadi. Har bir xalq o‘zining tabiiy muhiti, iqlimi va turmush tarziga mos ravishda muayyan o‘simliklarni estetik mezon sifatida qabul qiladi.

Maqolada xalq dostonlarida go‘zallik konseptining fitonimlar yordamida aks etishi lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilinadi. Jumladan, fitonimlarning semantik xususiyatlari, ularning obraz yaratishdagi o‘rni, metaforik imkoniyatlari va turli fikr, qarashlarni aks ettirishdagi ahamiyati misollar asosida ochib beriladi.

Fitonimlar badiiy asarlarda nafaqat tabiat manzarasi, balki turli obrazlarning ko‘rinishi, his-tuyg‘ular va milliy koloritni ifodalashda muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Ular metafora, jonlantirish va o‘xshatishlar orqali qahramonning ruhiy olamini ochish, go‘zallikni tasvirlashda jonli tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Fitonimlar tildagi badiiy-uslubiy ma’nolarni boyitib, asar tilining ta’sirchanligini oshiradi. Eng avval “bodom” leksemasiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz zarur. Qoraqalpoq dostonlarida go‘zallikni til birliklari orqali yuzaga chiqarishda unumli qo‘llaniladigan fitonim – bu “bodom” fitonimi hisoblanadi. Tadqiqotchi G.Muqimova dissertatsiya ishida “bodom” fitonimiga alohida to‘xtalib, ... “yor og‘zini pista deb aytish, pistadagi kichik ochilishni yor og‘zining nozik ochilishiga o‘xshatish, qovoqni bodom deb aytish, o‘zbek xalqining o‘ziga xos topilmalari” deb yuqori baho beradi [3, –B. 12]. Bu fitonim qoraqalpoq xalq dostonlarida ham go‘zallikni ifodalashda juda ko‘p qo‘llaniladi.

Bodom, asosan, yog‘li va mazali doni uchun ekiladigan daraxt bo‘lib, ko‘pincha go‘zal ayolning ko‘zi yoki qovog‘i bodom shakliga tenglashtiriladi. Xalq amaliy hunarmandchiligida bodom shaklidagi bezaklardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, do‘ppilarda tasvirlangan bodom shakli baxt, to‘kin-sochinlik ramzi, tiriklik va hayot timsoli hisoblanadi. Quyidagi misollarda “bodom” oddiy o‘simlik emas, balki go‘zallikni aks ettiruvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi:

Badam qabaq, oymaq awız qızı bar,

Joldas bolǵan ómir boyı baǵınǵan (Máspatsha)

Keyingi misolda ham “bodom” orqali obrazning go‘zalligi yanada aniq tasvirlanadi: ...badam qabaq, appaq tamaq, ishken ası tamaǵınan kóringen. Qanday qız deyseń balam! (Máspatsha).

Ko‘rinib turganidek, qizning jamoli, qiyofasini ta’riflashda “bodom” fitonimi qo‘llanilishi orqali juda kuchli emotsional-ekspressivlik, fikrning ta’sirchanligi to‘liq ta’minlangan.

Qoraqalpoq folklorida go‘zallik konseptini bildiruvchi eng unumli qo‘llaniladigan fitonim – bu, so‘zsiz “gul” fitonimi. Fitonimik birlik sifatida “gul” leksemasi qoraqalpoq xalq dostonlarida keng semantik diapazonga ega bo‘lib, u nafaqat aniq bir predmetni, ya’ni o‘simlikning bir turini anglatish bilan cheklanmay, balki ko‘chma ma’noda estetik idealni, go‘zallik o‘lchamini va noziklik timsolini ham bildiradi. Shu jihatdan “gul” leksemasi dostonlarda metaforik va ramziy birlik sifatida faol qo‘llanilib, obraz yaratishda muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Masalan, folklor matnlarida qiz obrazi ko‘pincha “ochilgan gul” sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir orqali uning yoshlik davri, ya’ni eng go‘zal onlari va tabiiy go‘zalligi aks ettiriladi:

Men ashılǵan baǵ ishinde qızıl gúl (Qanshayım)

–Ashılǵan baǵdıń gúliseń

Qay shámenniń búlbiliseń (Qanshayım)

Bunda “gul” leksemasi birinchi misolda ayol go‘zalligini, ikkinchi misolda esa, aksincha, erkak kishining chiroyliligini bildirib kelgan.

Qoraqalpoq folklorida gul obrazlari go‘zallikni aks ettiruvchi eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiat go‘zalligidan ko‘ra, ayollar go‘zalligini tasvirlashda gul metaforalaridan keng foydalaniladi. Gul obrazining asosiy semantik xususiyatlari nafislik, go‘zallik, poklik, yoshlikdan iborat. Bu leksemaning go‘zallik konseptini verballashtirishdagi xizmatiga juda ko‘p misollar keltiraveramiz:

Aytıp boldım men sózimdi, ózińbil,

Zar jılayman, men súymedim qızıl gúl (Qoblan)

Qızıl gúldey buralıp,

Moynına monshaq taǵıp (Qanshayım)

Bunda misollarda go‘zal qiz obrazini verballashtirishda gul fitonimi qo‘llanilgan. “Gul” leksemasining qo‘llanilishi faqat antropotsentrik tasvirlash bilan cheklanmaydi. Dostonlarda tabiat manzaralari ham aynan shu leksema orqali estetik jihatdan boyitiladi. Bu holatda “gul” tabiatning rang-barangligini bildiradi, muhitning go‘zallik darajasini oshiradi, poetik tasvirga emotsional-ekspressiv bo‘yoq beradi. Masalan, quyidagi misollarda gul fitonimi tabiat go‘zalligini ta’riflashda qo‘llanilgan:

Qızıl gúller ashılǵan

Aq saraydıń ishinde (Qurbanbek)

Altın saray qurılǵan
Qarsı aldına qarasa:
Shámenli gúller ashılǵan,
Búlbilleri sayraǵan,
Qırmızı gúller jaynaǵan! (Qurbanbek)

Keltirilgan misollarda “gul” leksemasi tabiatni tasvirlashda vizual va hissiy effektni kuchaytiruvchi birlik sifatida yuzaga chiqadi.

“Gul” leksemasi o‘zining dastlabki leksik ma’nosidan kelib chiqib, go‘zallikning eng yuqori darajasini, sevish va muhabbat timsoli kabi ramziy ma’nolarni ham anglatadi. Shu sababli “gul” obrazi dostonlarda ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham real, ham ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Shuningdek, ko‘pchilik hollarda “gul” va “g‘uncha” fitonimlari yonma-yon qo‘llanilib, go‘zallikni ta’riflashda xizmat qilib keladi:

Quwanǵannan anası
Beti bolǵan gúl-ǵumsha (Qanshayım)
Ashıladı gúl-ǵumsha,
Abduraxman, Qanshayım
Otawda qalıp ońasha (Qanshayım)
Atı edi Halima
Eki beti gúl-ǵumsha (Qanshayım)

Dostonlarda “gul” leksemasi ko‘pincha ayol-qizlar obrazining tashqi go‘zalligini tasvirlashda qo‘llaniladi. Bunda nafosat, yoshlik va betakrorlik, jozibadorlik, maftunkorlik kabi ma’nolar ustuvorlik qiladi. Alohida ta’kidlashimiz lozimki, ayollar siymosi gulga qiyoslanganda, bu o‘xshatish orqali uning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ichki nafosati ham nazarda tutiladi. Demak, “gul” obrazi xalq dostonlarida kompleks estetik idealni aks ettiradi.

Tadqiqotchi D.Bahramova o‘z ilmiy ishlaridan birida fitonimik metaforalar haqida so‘z yuritar ekan, o‘simlik nomlari asosidagi nom ko‘chishlarini alohida ta’kidlaydi: “chinor” – uzoq umr, “lola” – go‘zallik kabi [2, –B. 22-23].

Qoraqalpoq xalq dostonlarida ham fitonimlar yordamida go‘zallikning yuzaga chiqishini “lola” leksemasi asosida ham ko‘rsak bo‘ladi. Asosan, lola rangi (qizilligi) va ayrim xususiyatlari (nozikligi, mayinligi) bilan qizlarning yuziga nisbatan qo‘llaniladi.

Taza gúlmen, shın ashılǵan lalazar (Qanshayım)
Ashılǵan baǵda lalaman,
Gá tasıp, shólde janaman (Sháryar)
Men kórmedim senińdeyin lalanı (Qurbanbek)

Shuningdek, tabiat go‘zalligini ta’riflashda ham lola leksemasi “lolazor” ko‘rinishida qo‘llanilib, bu nihoyatda go‘zal, obod joylarni anglatishda ko‘p ishlatiladi. Masalan:

Abat boldı keń maydan,

Ashıldı baǵdıń lalası (Qırq qız)

Baǵlarım bar – gúl ashılǵan lalalar (Qanshayım)

Ko‘rinib turganidek, qoraqalpoq xalq dostonlarida “lola” va “lolazor” leksemalari fitonimik birlik sifatida go‘zallik konseptining asosiy verballashtiruvchi vositalaridan biri hisoblanadi. U orqali nafaqat ayol go‘zalligi, balki tabiatning estetik manzarasi ham aks ettiriladi. Bu leksemaning keng metaforik imkoniyatlari uning lingvopoetik ahamiyatini yanada oshiradi:

Bir jola sapar shegemen

Baǵlarım bar lalazar (Qanshayım)

Baǵımda ashılǵan gúller lalazar,

Shın ashıqlar qosılǵansha “ax” urar (Qanshayım)

Bu misollarda “lolazor” leksemasi orqali faqatgina ma’lum bir joy anglatib qo‘yilmasdan, balki ko‘rgan ko‘zni quvontiradigan go‘zal tabiat go‘zalligi ko‘z oldimizga keladi. Bunday misollarni qoraqalpoq xalq dostonlarida juda ko‘p uchratamiz:

Búlbil quslar sayraǵan,

Qalası boldı lalazar (Qırq qız)

Baǵlarıń ashılıp dóngen lalazar,

Yar menen sóylespe, tarqamas qumar (Er Ziywar)

Misollarda ko‘rinib turganidek, “lolazor” orqali tabiat go‘zalligini aks ettirishda “bulbul”, “chumchuq”, “qushlar” kabi atamalar ham xizmat qilib keladi. Biz qoraqalpoq xalq dostonlaridagi go‘zallik konseptining “lola” fitonimi yordamida yuzaga chiqishini o‘rganar ekanmiz, quyidagi misollar alohida e’tiborimizni tortdi:

Júrgen jeriń bolsın seniń lalazar

Jamalıńa jeti ıqlım biyqatar (Qurbanbek)

Baǵlarda ashılǵan gúller lalazar,

Jamalımdı kórgen janlar quwanar (Er Ziywar)

Bir qaraganda bu satrlarda tabiat manzarasi tasvirlangandek tuyuladi. Lekin e’tibor berib qarasak, misollarda qiz go‘zalligi bilan tabiat go‘zalligi o‘zaro uyg‘unlashib, g‘oyat go‘zal satrlarni yaratib turibdi.

Qoraqalpoq dostonlarida go‘zallikni tasvirlashda ko‘p qo‘llaniladigan yana bir fitonim – bu “chiviq” fitonimi. Ayol-qizlar go‘zalligini ta’riflashda ularning bo‘yini novdaning uzunligiga o‘xshatadi, ish-harakatlarini novdadek nozik qilib ta’riflaydi. Shuningdek, ularning qipcha bel, ozg‘inligini yetkazib berishda ham, “tol chiviqday bellari” deb ishlatilishini ko‘ramiz:

Sol máhálde Qanshayım,

Tal shıbıqtay tawlandı (Qanshayım)

...názik boyın burıp, sılanıp-sıypanıp, tal shıbıqtay buralıp...(Qurbanbek)

Tal shıbıqtay buralǵan

Kórgenniń aqılın alǵan (Alpamıs)

Bizningcha, “chiviq” kabi oddiy o‘simlik atamalari yordamida ham go‘zallik ifodalanishi bejiz emas. Qoraqalpoq xalqining tabiiy muhit bilan chambarchas bog‘liqligi fitonimlarning tez-tez qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan. Cho‘l va dasht sharoitida yashagan aholi uchun o‘simliklar tiriklik, go‘zallik va yasharish timsoli sifatida qabul qilingan. Shu sababli folklorda fitonimlar estetik idealni ifodalash, obraz yaratish, emotsional ta’sirni kuchaytirish, ramziy ma’no berish kabi funksiyalarni bajaradi. “Chiviq” leksemasini qo‘llash orqali go‘zallik konseptini verballashtirish ham xalq dostonlarida juda ko‘p uchraydi:

... Gúlparshın tal shıbıqtay buralıp, Alpamıstıń aqılın alıp, eki qolın kóksine qoydı (Alpamıs)

Tal shıbıqtay tawlanǵan,

Beli tartılǵan jayday (Qırq qız)

Kelbetiń kórgenniń aqılın alǵan,

Boyın kórsem tál shıbıqtay tawlanǵan (Qırq qız)

Demak, keltirilgan misollarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, fitonimlar xalq og‘zaki ijodida nafaqat nominativ birlik sifatida, balki kuchli poetik va semantik yuklamaga ega obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali insonning tashqi va ichki go‘zalligi, estetik ideallari, shu bilan birga, milliy dunyoqarashi ham aks etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘simlik nomini ifodalovchi leksemalar orqali go‘zallikni tabiat bilan bog‘liq holda ko‘rish barcha xalqlarga xos bo‘lib, insonning tabiat bilan uyg‘unlashuvi natijasidir.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodida “go‘zallik” konseptining elementlarini tashkil etuvchi go‘zal, yoqimli, jozibali, shirin, xushbo‘y, zavq beruvchi, o‘ziga tortuvchi, nuqsonsiz, toza, pokiza kabi tushunchalarni o‘simliklar orqali ifodalash xalq dostonlarida asosiy tasvir vositalaridan biri bo‘lib, unda milliy-madaniy va estetik qadriyatlar o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdinazimov Sh., Tolibayev X. Lingvokulturologiya. – Nukus: O‘zbekiston, 2020. – 144 b.

2. Bahramova D. Fitomorfik va fitonimik metaforalashning xalq hayotidagi o‘rni // Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Samarqand, 2015-yil 1-2-may). – Samarqand, 2015. – B. 22-23.

3. Muqimova G.R. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2023. – 52 b.

4. Okuneva I.O. “Go‘zallik” konsepti rus va ingliz tillarida: Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. – Moskva, 2009. – 25 b.

5. Rahmatova M.M. Go‘zallik konseptining badiiy matnlarda voqelanishi va uning konseptual tahlili // BuxDU ilmiy axboroti, 2019/2 (74). – B. 101-107.

6. Rahmatova M.M. Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “Go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari: Falsafa doktori (PhD)... diss. avtoref. – Buxoro, 2019. – 20 b.

7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.